

**ANDIJON VILOYATIDA 2023 YILDA OIV INFEKSIYASI PROFILAKTIKASIDA  
MULOQOTDAN KEYINGI PROFILAKTIKANING SAMARADORLIGINI  
O'RGANISH**

*To'liqinboyev Komiljon Rahmatjon o'g'li*

Bugungi kunda OIV infeksiyali bemorlar xayotning turli jabxalarida emin erkin faoliyat yuritib kelmoqda. Bemorlarga sifatli tibbiy va maishiy xizmat ko'rsatish turlari xam ko'payib bormoqda. SHuning uchun xam OIV infeksiyasini oldini olishda muloqotdan keyingi profilaktika ahamiyati dolzarb bo'lib qolmoqda.

**Maqsad:** OIV infeksiyasini shifoxona ichi infeksiyasi sifatida va parenteral va jinsiy yo'l bilan yuqishini oldini olishda muloqotdan keyingi profilaktika katta ahamiyati, avariya xolatiga to'g'ri baxo berish, vaqtida ko'rsatilgan MKP tufayli OIV infeksiyasini yuqish xolatlarini oldini olish. Avariya xolati sodir bo'lganda bemorning statusi noma'lum yoki ma'lum bo'lishidan qat'iy nazar MKP o'tkaziladi.

**Tekshiruv usuli:** Andijon viloyat OITSGa qarshi kurash markazining olib borilgan hisobotlari bo'yicha 2023 yilda MKP bo'yicha murojaat qilgan fuqarolar 69 ta (Tibbiyot xodimlari 50 %, oila a'zolari 22 %, betartib jinsiy aloqa qiluvchilar 8 %, boshqalar 20 %. Virus yuklamasi yuqori bo'lgan bemorlarga o'tkazilgan vena ichi infeksiyasidan keyingi ignadan sodir bo'lgan avariya holati va betartib jinsiy aloqa qilishdan so'ng statusi ma'lum bo'lgan holatlar xam uchradi) Ular orasida OIV infeksiyasi aniqlanganlar kuzatilmadi.

**Natija:** Bugungi kundagi mavjud muammolardan biri tibbiy va maishiy xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va OIV infeksiyali shaxslarning sog'lom jinsiy sheriklari (diskordant juftliklar) xamda ularni parvarishlovchi ota-onalari avariya xolatlarini keltirib chiqarmaslikka to'g'ri baxo bermasligi, vaqtida murojaat etmasligi, shuningdek MKP maqsadida tavsiya etilgan ARPlarini to'g'ri qabul qilishi zarurligini tushunishidagi beetiborliklari bo'lib qolmoqda.

Ta'kidlanganlarni e'tiborga olib, OIV infeksiyali bemorlar oila a'zolari (parvarishlovchi ota-onalari va sog'lom jinsiy sheriklari) tibbiy va maishiy (sartaroshxonalar va go'zallik salonlari) xizmat ko'rsatish xodimlar ayniqsa OIV yuqishi extimoli yuqori bo'lgan axoli o'rtasida OIV infeksiyasini yuqish yo'llari ushbu infeksiyadan saqlanish usullari targ'ibotini kuchaytirish, axoli tibbiy ongini oshirish ishlarini samaradorligini xududiy SEOM xamda OITSGa qarshi kurash markazlari tomonidan muntazam nazoratini ta'minlash va monitoring olib borish zarur bo'ladi.

**Xulosa:** O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining 2021 yil 19 avgustdagi 206-sonli buyrug'ining 8-ilovasiga asosan muloqotdan keyingi profilaktika o'tkazish uchun zarur bo'lgan retrovirusga qarshi preparatlari byudjet tomonidan taqdim etilayotganligi, MKP bilan qamrab olish darajasini ortganligi, MKP maqsadida OIVga 3 marotaba (murojaat etganda, 3 oy, 6 oy) komission tartibda tekshiruvlarni tashkil etilganligi natijasida MKP o'tkazilgan xolatlarda OIV infeksiyasini yuqish holatlari qayd etilmadi.